MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
AVGUST 8-SON, III-QISM



Milliy nashrlar

OAK: https://oak.uz/pages/4802

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ НА ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ 9
Мусаев Озоджон Шавкат Огли
MAHALLIY BUDJETNING MOLIYAVIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLARINI BAHOLASH 15
Uktamov Fazliddin Faxriddinovich
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РОЗНИЧНЫХ ОПЕРАЦИЙ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ 19
Султонмуродов Сардорбек Баходирович
OLIY TA'LIM TIZIMI RIVOJLANISHINING HUDUDIY IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA) 24
Egamov Sevinchbek
TIJORAT BANKLARINING TO'LOV XIZMATLARI AMALIYOTI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI 29
B.B. Xanaliyev
SAMARQAND VILOYATIDA TURISTIK KORXONALAR INNOVASION RIVOJLANISHINI SSENARIYLI PROGNOZLASH 33
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna
MILLIY MODA ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA UNI O'ZLASHTIRISH SHARTLARI 38
Yusupova Moxinur Farxod qizi
HUDUDLAR INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 48
Umaraliyev Sanjar Sultonaliyevich
DAVLAT XARIDLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARINI TAKOMILLASHTIRISH 53
Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich
«ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ В УЗБЕКИСТАНЕ» 62
Хайруллаева Малика Шухратжон кизи
EMPIRICAL EVALUATION OF THE FACTORS ASSOCIATED WITH APPLICANT BEHAVIOUR IN HIGHER EDUCATION CHOICE: INDIVIDUAL CUT-OFFS, THRESHOLD HETEROGENEITY, AND THE LIMITS OF AGGREGATE DETECTION 68
Umarov Shuhrat Bahodir o'g'li
SANOAT KORXONALARIDA DAVLAT XARIDLARI MOLIYAVIY RISKLARINI BOSHQARISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH 80
Xamdamov Sardor Farmon o'g'li
OLIY TA'LIM MUASSASALARI SAMARADORLIGIGA MARKETING STRATEGIYASI OMILLARINING TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (DEA–MALMQUIST–TOBIT MODELI ASOSIDA) 84
Egamov Sevinchbek
NEFT XOMASHYOSIDAN OLINUVCHI YO'L BITUMLARINING ASOSIY KOLLOID-KIMYOVIY VA EKSPLUATATSION XOSSALARIGA ULARNING UGLEVODOROD GURUH TARKIBINING TA'SIRINI TAHLILI 91
Abdullayeva Shoxista, Adizov Bobirjon
THE IMPACT OF LEADERSHIP SUPPORT ON ACADEMIC STAFF WORK EFFICIENCY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS 96
Sultonboyeva Munira, Sultanova Kamila

QURILISH MATERIALLARI BOZORIDA TALAB ELASTIKLIGINI MAHSULOT SEGMENTLARI KESIMIDA EKONOMETRIK BAHOLASH METODIKASI 103
Turdiyev Abdullo Sagdullayevich
IQLIM RISKLARI VA BANK KREDIT PORTFELI SIFATI: XITOY TAJRIBASI VA O‘ZBEKISTON UCHUN METODOLOGIK YONDASHUVLAR 110
Nasriyev Farxod
TIJORAT BANKLARIDA OPERATSION SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY BOSHQARUV MEXANIZMLARI (“HAMKORBANK” ATB MISOLIDA) 116
Haydarova Shohista Shuhrat qizi
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI RESTRUKTURIZATSIYA QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 126
Maqsudov Bunyodjon Abdusamat o‘g‘li
O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO’LLARI 131
Umirov Abdisalom To‘rayevich
O‘ZBEKISTONDA SOLIQ SOHASIDA IDORALARARO INTEGRATSIYA HOLATI VA UNI TAHLIL QILISH .. 138
Ashirov Jamolbek Shuxrat o‘g‘li
TO‘QIMACHILIK KORXONALARINING SUN’IY INTELLEKTGA TAYYORGARLIGI VA INTEGRATSIYA DARAJASINI BAHOLOVCHI KOMPOZIT INDEKS (AI-TII) METODIKASI 147
Madrahimova Onajon Javlon qizi
O‘ZBEKISTONDA TEMIR YO‘L SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA TURIZMNING AHAMIYATI VA O‘RNI: TALAB, INVESTITSIYA VA INTEGRATSIYA KANALLARI TAHLILI 153
Nazarov Ulug‘bek Akbar o‘g‘li
DONNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBINI YAXSHILASH YO‘LLARI 159
Aitimbetob Koyshibek Orazbekovich
O‘ZBEKISTONDA UY-JOY QURILISHINING HUDUDIY NOMU-TANOSIBLIGI VA 2040-YILGACHA BELGILANGAN MAQSADLI KO‘RSATKICHLARGA ERISHISH MASALALARI 166
Abdimaitov Saidumarxon Mansur o‘g‘li
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АНАЛИТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ В УПРАВЛЕНИИ ОПЕРАЦИОННЫМ РИСКОМ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ 171
Курбонов Илхом Жумакулович
TA’LIM XARAJATLARI SAMARADORLIGI: XALQARO QIYOSIY TAHLIL VA O‘ZBEKISTON UCHUN INSTITUTSIONAL SABOQLAR 177
Temirov Muhammad Maxmud o‘g‘li
KASE VA UCI INDEKSLARIDA RISK, O‘ZGARUVCHANLIK VA PROGNOZ BARQARORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH 182
Raximov Abduxalil Toshbotirovich
O‘ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK TARMOQLARINING 2030-YILGACHA RIVOJLANISHINI ARIMA VA SARIMA MODELLARI ASOSIDA PROGNOZLASH 192
Xaitova Rushana O‘ktamovna
MINTAQADA AHOLINING TAKROR BARPO BO‘LISHI VA UNING IQTISODIY RIVOJLANISH BILAN O‘ZARO ALOQASI 196
Saidov Jo‘rabek Nosirxonovich
DAVLAT XARIDLARIDA BUDJET TEJAMKORLIGINI BELGILOVCHI OMILLARNING PANEL EKONOMETRIK TAHLILI 201
Axmedjanov Sardorbek
SUN’IY INTELLEKTNING JAHON MEHNAT BOZORIGA TA’SIRI: IQTISODIY O‘SISH, BANDLIK VA DAROMADLAR TENGSIZLIGI 206
Sohibov Azizbek, Karimova Komila
O‘ZBEKISTONDA DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARDA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH 211
Axmedov Xasan Ruzibayevich

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

ТЕРМОДИНАМИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ И ПРОМЫШЛЕННАЯ ПРОВЕРКА ДЕСУЛЬФУРАЦИИ СТАЛИ 20ГЛ КАЛЬЦИЙ-АЛЮМИНАТНЫМ ФЛЮСОМ КРФ-90 В ИНДУКЦИОННОЙ ТИГЕЛЬНОЙ ПЕЧИ 216
Уразбаев Талгат, Турсунов Нодиржон, Абдуназаров Бахтиёр, Абдухаликов Ердаулет
VELSLASH KLINKER CHIQINDISIDAN QIMMATBAHO METALLARNI KOMPLEKS AJRATIB OLISH TEXNOLOGIYASINI TADQIQ QILISH 222
Qayumov Oybek, Uzoqov Shaxrizod, Qurbonov Bunyod
MONETAR SIYOSAT SHOKLARINING O‘ZBEKISTON EKSPORTI VA IMPORTIGA ASIMMETRIK TA’SIRI 227
Solijonova Muxlisaxon Azamatjon qizi
YANGI LOGISTIKA MARKAZI ORQALI YUK TASHISHNING TEXNIK-IQTISODIY ASOSLARI 232
Zohidov Muhriddin, Jumayev Sherzod
BANKLARDA SUN’IY INTELLEKTNI MAS’ULIYATLI BOSHQARISH: XALQARO MODELLAR VA O‘ZBEKISTONDA BARQAROR MOLIYAVIY RIVOJLANISH UCHUN MOSLASHTIRISH YO‘NALISHLARII . 240
Mirsoatov Alisher Qudratullayevich
KORXONALARDA EKOLOGIK XARAJATLAR HISOBINI TASHKIL ETISHNING AMALDAGI HOLATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 249
Muxammadjanov Muzaffar Muxammadsolixovich
MAROSIM VA URF-ODATLARDA GASTRONOMIK KONSEPTLARNING LINGVOMADANIY IFODALANISHI 254
Halimova Mahbuba To‘raqulovna
O‘ZBEKISTONDA PENSIYA QAMROVINI KENGAYTIRISH: NORASMIY BANDLIK VA O‘ZINI O‘ZI BAND QILGANLAR UCHUN IJTIMOIY SUG‘URTA MEXANIZMLARI 259
Oqiljonov Azizjon Olimjon o‘g‘li

O‘ZBEKISTONDA PENSIYA QAMROVINI KENGAYTIRISH: NORASMIY BANDLIK VA O‘ZINI O‘ZI BAND QILGANLAR UCHUN IJTIMOIY SUG‘URTA MEXANIZMLARI

Oqiljonov Azizjon Olimjon o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi yetakchi inspektori

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda pensiya qamrovini kengaytirish masalasi norasmiy bandlik, o‘zini o‘zi band qilish va badal to‘lash zichligi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. 2026-yilgi islohot materiallariga ko‘ra, 15,7 mln iqtisodiy faol aholining 8,6 mln nafari yoki 55 foizi rasmiy band, 4,9 mln nafari norasmiy band va 1,4 mln nafari xorijda ishlaydi. 2025-yilda 2,9 mln o‘zini o‘zi band qilgan shaxs ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsa-da, 860 ming nafari yoki qariyb 30 foizi ijtimoiy soliq to‘lagan. Maqolada “badal zichligi” tushunchasi pensiya huquqining barqarorligini baholovchi qo‘shimcha indikator sifatida taklif etiladi. Statik ssenariy hisob-kitoblari o‘zini o‘zi band qilganlar orasida yillik 440 ming so‘mlik to‘lovchilar ulushi 29,7 foizdan 60 foizga oshsa, yalpi tushum 378,4 mlrd so‘mdan 765,6 mlrd so‘mga, 80 foiz qamrovda esa 1,02 trln so‘mga yetishini ko‘rsatadi. Xalqaro mehnat tashkiloti va Jahon banki yondashuvlari asosida moslashuvchan to‘lov davriyligi, raqamli mikrobadal, kam daromadli qatlam uchun maqsadli subsidiya, oila a’zosi uchun ixtiyoriy badal hamda migrantlar uchun pensiya huquqlarining portativligi elementlaridan iborat qamrov modeli ishlab chiqiladi. Natijalar pensiya qamrovini kengaytirishda ro‘yxatdan o‘tkazish bilan bir qatorda, muntazam badal to‘lashni iqtisodiy jihatdan manfaatli va ma’muriy jihatdan qulay qiluvchi mexanizmlardan foydalanish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: pensiya qamrovi, norasmiy bandlik, o‘zini o‘zi band qilish, ijtimoiy sug‘urta, badal zichligi, rasmiylashtirish, migrantlar, pensiya huquqi.

Abstract. The article examines pension coverage in Uzbekistan through the lenses of informal employment, self-employment and contribution density. According to the 2026 reform materials, of 15.7 million economically active people, 8.6 million (55%) are formally employed, 4.9 million are informally employed and 1.4 million work abroad. In 2025, 2.9 million people were registered as self-employed, while 860,000-around 30%-paid social tax. The article proposes “contribution density” as an additional indicator of the sustainability of pension entitlements. Static scenario calculations show that if the share of self-employed contributors paying UZS 440,000 per year increased from 29.7% to 60%, gross annual receipts would rise from UZS 378.4 billion to UZS 765.6 billion; at 80% coverage they would reach UZS 1.02 trillion. Drawing on ILO and World Bank approaches, the paper develops a coverage model combining flexible payment frequency, digital micro-contributions, targeted subsidies for low-income workers, voluntary family-member contributions and pension-right portability for migrant workers. The results suggest that effective coverage can be supported not only through registration, but also through regular contribution behaviour, affordable contribution schedules, clear benefit entitlements and accessible digital administration. The proposed framework also links coverage development to formalisation incentives and the long-term revenue base of the pension system.

Keywords: pension coverage, informal employment, self-employment, social insurance, contribution density, formalisation, migrants, pension entitlement.

Аннотация. В статье рассматривается расширение пенсионного охвата в Узбекистане через призму неформальной занятости, самозанятости и плотности уплаты взносов. Согласно материалам пенсионной реформы 2026 года, из 15,7 млн экономически активного населения 8,6 млн человек, или 55 процентов, заняты официально; 4,9 млн работают неформально, а 1,4 млн - за рубежом. В 2025 году было зарегистрировано 2,9 млн самозанятых, при этом социальный налог уплатили 860 тыс. человек, то есть около 30 процентов. Предлагается использовать показатель «плотность взносов» для оценки устойчивости формирования пенсионных прав. Статические расчеты показывают, что при увеличении доли плательщиков среди самозанятых до 60 процентов валовые поступления при годовом платеже 440 тыс. сумов могут вырасти с 378,4 до 765,6 млрд сумов, а при 80 процентах - достичь 1,02 трлн сумов. На основе подходов МОТ и Всемирного банка предложена модель, включающая гибкую периодичность платежей, цифровые микровзносы, адресные субсидии, добровольные взносы за членов семьи и переносимость пенсионных прав мигрантов. Сделан вывод о том, что расширение эффективного охвата может обеспечиваться не только регистрацией, но и регулярностью и доступностью уплаты взносов.

Ключевые слова: пенсионный охват, неформальная занятость, самозанятость, социальное страхование, плотность взносов, формализация, мигранты, пенсионное право.

KIRISH

Pensiya tizimining barqarorligi nafaqat pensiya oluvchilarga to‘lovlarni moliyalashtirish, balki kelajakdagi avlodlarning pensiya huquqlarini shakllantirish qamrovi bilan ham baholanadi. O‘zbekistonda to‘liq yoshga doir pensiya huquqi erkaklarda 60 yosh va kamida 25 yil, ayollarda 55 yosh va kamida 20 yil ish stajiga bog‘langan; yetarli to‘liq staj bo‘lmaganda kamida 7 yil stajga ega shaxslarga mutanosib pensiya tayinlanadi[1]. Shu sababli uzoq muddatli norasmiy bandlik joriy budjet tushumlari bilan bir qatorda, fuqarolarning kelajakdagi pensiya ta’minotining yetarliligiga ham ta’sir qilishi mumkin.

Islohot materiallarida 15,7 mln iqtisodiy faol aholining 8,6 mln nafari rasmiy band, 4,9 mln nafari norasmiy band va 1,4 mln nafari xorijda ishlashi qayd etilgan[2]. O‘zini o‘zi band qilganlar bo‘yicha 2025-yilda 2,9 mln shaxs ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, shundan 860 ming nafari ijtimoiy soliq to‘lagan[3]. Mazkur ko‘rsatkichlar ma’muriy ro‘yxatdan o‘tish va amaldagi ijtimoiy sug‘urta qamrovi o‘rtasidagi tafovutni tahlil qilish muhimligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda pensiya qamrovini kengaytirish uchun badal to‘lashning muntazamligi, to‘lov dizayni va ma’muriy qulaylikni birlashtirgan mexanizm ishlab chiqish hamda o‘zini o‘zi band qilganlar bo‘yicha qamrov oshishining potensial fiskal ta’sirini ssenariylar asosida baholashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro adabiyotlarda norasmiy sektor ijtimoiy sug‘urta tizimlarida “missing middle” deb ataluvchi holatni yuzaga keltirishi qayd etiladi: o‘zini o‘zi band qilgan, vaqtinchalik yoki nomuntazam ishlovchi shaxslarning badal to‘lashga asoslangan ijtimoiy sug‘urta bilan qamrovi nisbatan cheklangan bo‘lishi mumkin, shu bilan birga, ular ayrim hollarda manzilli ijtimoiy yordam mezonlariga ham mos kelmasligi mumkin[4]. ILO bunday guruhlar uchun huquqiy qamrovni kengaytirish bilan birga moliyaviy, ma’muriy va axborot bilan bog‘liq to‘siqlarni kamaytirish muhimligini ta’kidlaydi[5].

Jahon bankining O‘zbekiston bo‘yicha tizimli diagnostikasida norasmiy bandlik va daromadlar darajasi keksalik davridagi badalga asoslangan pensiya ta’minoti qamroviga ta’sir etuvchi omillar sifatida ko‘rsatilgan[6]. O‘zini o‘zi band qilganlar uchun an’anaviy oylik ish haqiga bog‘langan sug‘urta dizayni har doim ham to‘liq mos kelmasligi mumkin; Jahon banki badallarni moslashuvchan davriylikda to‘lash, sodda raqamli to‘lov kanallaridan foydalanish va daromadlarning o‘zgaruvchanligini hisobga oluvchi mexanizmlarni muhokama qiladi va daromad o‘zgaruvchanligini hisobga oluvchi mexanizmlarni muhokama qiladi[7].

O‘zbekiston 2025-yilda ILO, UNDP, UNICEF, UN Women va Jahon banki ishtirokidagi Global Accelerator dasturini ishga tushirdi; unda 300 ming norasmiy ishchini rasmiy bandlikka jalb etish va 300 ming kishining ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish maqsadi belgilanga[8]. Bu pensiya qamrovi siyosatini alohida ma’muriy loyiha sifatida emas, balki mehnat bozorini rasmiylashtirish jarayonlari bilan integratsiyalashgan yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qamrov bo‘yicha deskriptiv tahlil, institutsional qiyoslash va statik fiskal ssenariy usuli qo‘llanildi. O‘zini o‘zi band qilganlar uchun bazaviy ma’lumot sifatida 2,9 mln ro‘yxatdan o‘tgan shaxs, 860 ming amaldagi to‘lovchi va yiliga 440 ming so‘mlik ijtimoiy soliq miqdori olindi[9]. Amaldagi to‘lovchilar ulushi 860/2900 = 29,7 foiz deb hisoblandi.

Qamrov ssenariylari 60, 80 va 100 foizlik to‘lovchilar ulushi uchun hisoblandi. Yalpi tushum C = N × s × p formulasi bo‘yicha aniqlanadi; N - ro‘yxatdan o‘tganlar soni, s - to‘lovchilar ulushi, p - yillik to‘lov. Ushbu statik hisob-kitob daromadlarning differensialligini, imtiyozlarni, yig‘ish xarajatlarini va 10 foizlik ijtimoiy sug‘urta

1 O‘zbekiston Respublikasi. “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonun, 03.09.1993, 938-XII-son. https://lex.uz/docs/-112314.
2 O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. “O‘zbekiston Respublikasida pensiya tizimini isloh qilish bo‘yicha takliflar”. Taqdimot materiali, 2026, 8 b. (muallifga taqdim etilgan material).
3 Pensiya jamg‘armasi. “Bugungi hissa - ertangi ijtimoiy himoya”, 22.09.2026. https://gov.uz/oz/pj/news/view/223241.
4 International Labour Organization. World Social Protection Report 2024–26: Universal social protection for climate action and a just transition. Geneva: ILO, 2024. DOI: https://doi.org/10.54394/ZMDK5543.
5 International Labour Organization. World Social Protection Report 2024–26, Chapter 3: Coverage gaps for workers and the ‘missing middle’. 2024.
6 World Bank. Toward a Prosperous and Inclusive Future: The Second Systematic Country Diagnostic for Uzbekistan. Washington, DC: World Bank, 2022.
7 World Bank. Toward Better Insurance for Self-Employed Workers. Webinar and analytical resources, 17.01.2024. https://www.worldbank.org/en/events/2024/01/17/toward-better-insurance-for-self-employed-workers.
8 International Labour Organization. Uzbekistan unveils major actions to curb informal economy and strengthen social protection, 30.04.2025. https://www.ilo.org/resource/news/uzbekistan-unveils-major-actions-curb-informal-economy-and-strengthen.
9 Pensiya jamg‘armasi. “Bugungi hissa - ertangi ijtimoiy himoya”, 22.09.2026. https://gov.uz/oz/pj/news/view/223241.

ajratmasi kabi keyingi taqsimotlarni hisobga olmaydi; uning maqsadi qamrov o‘zgarishining umumiy ko‘lamini ko‘rsatishdan iborat.

Maqolada qo‘shimcha indikator sifatida “badal zichligi” CD = badal to‘langan oylar / kuzatilgan oylar soni taklif etiladi. Ro‘yxatdan o‘tganlikning 1/0 ko‘rsatkichi fuqaroda stajning muntazam shakllanish darajasini to‘liq aks ettirmaydi; badal zichligi esa kuzatilgan davrda badal to‘lashning muntazamligi va pensiya stajining shakllanish uzluksizligini qo‘shimcha baholash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2025-yilda o‘zini o‘zi band qilgan 2,9 mln shaxsning 860 ming nafari ijtimoiy soliq to‘lagan, ya’ni to‘lovchilar ulushi 29,7 foizni tashkil etgan[10]. Shunday qilib, taxminan 2,04 mln ro‘yxatdan o‘tgan shaxs pensiya stajini shakllantiruvchi yillik to‘lovni amalga oshirmagan. Bu pensiya siyosatida “ro‘yxatdan o‘tganlar soni”ni qamrovning yagona yakuniy ko‘rsatkichi sifatida qabul qilish yetarli bo‘lmasligi mumkinligini ko‘rsatadi (1-jadval).

1-jadval. O‘zbekistonda pensiya qamrovining asosiy demografik va bandlik ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Qiymat	**Tahliliy mazmun**
Iqtisodiy faol aholi	15,7 mln	Pensiya qamrovining potensial bazasi
Rasmiy bandlar	8,6 mln (55%)	Doimiy badal bazasining asosiy qismi
Norasmiy bandlar	4,9 mln	Pensiya huquqi uzilishining asosiy xavf guruhi
Xorijda ishlovchilar	1,4 mln	Portativlik va ixtiyoriy badal mexanizmi talab etiladi
O‘zini o‘zi band qilganlar	2,9 mln	Ro‘yxatdan o‘tgan segment
Ijtimoiy soliq to‘lagan o‘zini o‘zi bandlar	860 ming (29,7%)	Real contributory coverage

Manba: Iqtisodiyot va moliya vazirligi islohot materiallari[11] va Pensiya jamg‘armasidan[12] olingan ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yiliga 440 ming so‘mlik to‘lov o‘zgarmaydi, degan farazda amaldagi 860 ming to‘lovchidan yalpi yillik tushum qariyb 378,4 mlrd so‘mni tashkil etadi. To‘lovchilar ulushi 60 foizga yetganda 1,74 mln shaxs qatnashadi va yalpi tushum 765,6 mlrd so‘mga, 80 foizda esa 1,0208 trln so‘mga yetadi. To‘liq 100 foizlik ssenariyda 1,276 trln so‘m shakllanadi. Mazkur summalar Pensiya jamg‘armasiga to‘liq sof tushum sifatida qaralmasligi lozim, chunki islohot taklifida to‘lovning 10 foizini Davlat ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasiga yo‘naltirish nazarda tutilgan[13].

2-jadval. O‘zini o‘zi band qilganlar orasida to‘lovchilar ulushi oshishining yillik yalpi tushumlarga ta’siri

To‘lovchilar ulushi	**To‘lovchilar soni**	**Yillik yalpi tushum**	**Amaldagiga nisbatan qo‘shimcha**
29,7% (amaldagi)	0,86 mln	378,4 mlrd so‘m	-
60%	1,74 mln	765,6 mlrd so‘m	+387,2 mlrd
80%	2,32 mln	1 020,8 mlrd so‘m	+642,4 mlrd
100%	2,90 mln	1 276,0 mlrd so‘m	+897,6 mlrd


Manba: Muallifning statik ssenariy hisob-kitobi; p = 440 ming so‘m/yil.

10 Pensiya jamg‘armasi. “Bugungi hissa - ertangi ijtimoiy himoya”, 22.09.2026. https://gov.uz/oz/pj/news/view/223241.

11 O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. “O‘zbekiston Respublikasida pensiya tizimini isloh qilish bo‘yicha takliflar”. Taqdimot materiali, 2026, 8 b. (muallifga taqdim etilgan material).

12 Pensiya jamg‘armasi. “Bugungi hissa - ertangi ijtimoiy himoya”, 22.09.2026. https://gov.uz/oz/pj/news/view/223241.

13 Pensiya jamg‘armasi. “Bugungi hissa - ertangi ijtimoiy himoya”, 22.09.2026. https://gov.uz/oz/pj/news/view/223241.



1-rasm. O'zini o'zi band qilganlar qamrovi oshishining yalpi tushum ssenariylari
Manba: Muallif hisob-kitobi.

Mazkur ssenariyning iqtisodiy mazmuni faqat qo'shimcha tushum bilan cheklanmaydi. Har bir yangi muntazam to'lovchi kelajakda contributory pensiya huquqini shakllantiradi va keksalik davrida faqat soliq hisobidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy nafaqalarga ehtiyojning ortishi xavfini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu sababli qamrov siyosati natijalarini joriy fiskal tushumlar va kelajakdagi ijtimoiy majburiyatlarni birgalikda hisobga olgan holda baholash maqsadga muvofiq.

Birinchi element - to'lov chastotasini mehnat daromadining xususiyatiga moslashtirish. O'zini o'zi band qilgan shaxs uchun yillik majburiyatni saqlagan holda, uni oyma-oy, choraklik, mavsumiy yoki bir martalik to'lash imkoniyatini taqdim etish maqsadga muvofiq.

Rasmiy taklifning yil davomida bo'lib to'lash mexanizmi ushbu yondashuvga mos keladi[14].

Ikkinchi element - badal zichligi monitoringi. "Yagona pensiya profili"da oxirgi 12, 36 va 60 oy uchun badal to'langan oylar ulushi, shakllangan staj va kutilayotgan pensiya huquqi ko'rsatilsa, fuqaro uchun ro'yxatdan o'tish va pensiya natijalari o'rtasidagi bog'liqlik yanada aniqroq aks etadi. Badal to'lashda uzilish yuzaga kelganda proaktiv SMS yoki mobil xabarnoma yuborilishi mumkin.

Uchinchi element - kam daromadli guruhlar uchun doimiy subsidiyadan ko'ra vaqtinchalik matching yoki start-up subsidy mexanizmlaridan foydalanish. ILO qamrovni kengaytirishda moliyaviy imkoniyati cheklangan guruhlar uchun subsidiyalangan contributory mexanizmlardan foydalanish mumkinligini ta'kidlaydi[15]. Bunday subsidiyani daromad mezoniga bog'lash va ma'lum muddatdan so'ng bosqichma-bosqich kamaytirish maqsadga muvofiq.

To'rtinchi element - ishlamaydigan oila a'zosi uchun ixtiyoriy badal. Rasmiy ishlayotgan fuqaroning ota-onasi yoki qonunda belgilangan boshqa oila a'zosi uchun ijtimoiy soliq to'lash imkoniyati uy mehnati va parvarish faoliyati sababli mehnat bozoridan tashqarida bo'lgan shaxslarning pensiya stajini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin[16]. Bu mexanizm gender pensiya tafovutini kamaytirish nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega.

Beshinchi element - mehnat migrantlari uchun portativlik. ILO migrantlar ijtimoiy himoyasida teng munosabat, earned rights'ni saqlash va portability tamoyillarini asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilaydi[17].

14 Pensiya jamg'armasi. "Bugungi hissa - ertangi ijtimoiy himoya", 22.09.2026. https://gov.uz/oz/pj/news/view/223241.

15 International Labour Organization. World Social Protection Report 2024–26: Universal social protection for climate action and a just transition. Geneva: ILO, 2024. DOI: https://doi.org/10.54394/ZMDK5543.; International Labour Organization. World Social Protection Report 2024–26, Chapter 3: Coverage gaps for workers and the 'missing middle'. 2024.

16 O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. "O'zbekiston Respublikasida pensiya tizimini isloh qilish bo'yicha takliflar". Taqdimot materiali, 2026, 8 b. (muallifga taqdim etilgan material).

17 International Labour Organization. ILO Strategy on extending social protection to migrant workers, refugees and their families. Geneva: ILO, 2024.

O‘zbekiston uchun xorijiy davlatlar bilan ijtimoiy ta’minot bitimlarini kengaytirish, shuningdek, migrantlarning O‘zbekistondagi individual hisoblariga raqamli ixtiyoriy badal to‘lash imkoniyatlarini soddalashtirish qamrovni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi mumkin.

Pensiya tayinlash uchun minimal ish stajini 2027-yildan boshlab har yili 1 yilga oshirib, 2034-yilda 15 yilga yetkazish taklif qilinmoqda; rasmiy ma’lumotga ko‘ra, to‘liq stajga ega bo‘lmagan yangi pensionerlar ulushi 2010-yildagi 6 foizdan 2025-yilda 61 foizga yetgan[18]. Agar staj talabi oshirilsa, qamrovni kengaytiruvchi mexanizmlarni ham parallel ravishda rivojlantirish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv staj talablaridagi o‘zgarishlarning turli bandlik guruhlariga ta’sirini muvozanatli hisobga olish imkonini beradi. Shu sababli “staj talabi + moslashuvchan badal + raqamli monitoring + past daromadli guruhlarni qo‘llab-quvvatlash” elementlarini yagona paket sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi pensiya qamrovini faqat ma’muriy ro‘yxatdan o‘tish ko‘rsatkichi bilan emas, balki “badal zichligi” orqali baholash hamda o‘zini o‘zi band qilganlar qamrovining fiskal ko‘lamini ssenariylar asosida hisoblashdan iborat. Taklif etilayotgan indikator fuqaroning kuzatilgan davrda nechta oy badal to‘laganini o‘lchab, pensiya huquqining shakllanish davomiyligini baholash imkonini beradi.

Amaliy jihatdan badal zichligi Pensiya jamg‘armasida risk segmentatsiyasi, proaktiv xabarnomalar, rasmiylashtirish dasturlarining KPI ko‘rsatkichlari va pensiya islohotlari ta’sirini baholashda qo‘llanishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonda pensiya qamrovini kengaytirishda norasmiy bandlik ko‘lami bilan bir qatorda, ro‘yxatdan o‘tgan o‘zini o‘zi band qilganlar orasida badal to‘lash muntazamligini oshirish masalasi ham muhim ahamiyatga ega. 2,9 mln ro‘yxatdan o‘tgan shaxsning 860 ming nafari ijtimoiy soliq to‘lagani ro‘yxatdan o‘tgan o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar orasida 2025-yilda ijtimoiy soliq to‘laganlar ulushi qariyb 30 foizni tashkil etganini ko‘rsatadi.

Birinchidan, yillik badalni moslashuvchan davriylikda to‘lash imkoniyatini raqamli shaklda yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, qamrov KPIlaridan biri sifatida “badal zichligi” ko‘rsatkichini joriy etish mumkin. Uchinchidan, kam daromadli segment uchun vaqtinchalik va maqsadli davlat qo‘shma moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatini ko‘rib chiqish mumkin. To‘rtinchidan, oila a’zosi uchun ixtiyoriy badal mexanizmi parvarish faoliyati sababli yuzaga keladigan pensiya stajidagi ayrim uzilishlarni qisqartirishga ko‘maklashishi mumkin. Beshinchidan, mehnat migrantlari uchun pensiya huquqlarining portativligi va masofaviy badal to‘lash kanallarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Oltinchidan, minimal staj talabidagi o‘zgarishlarni qamrovni kengaytiruvchi mexanizmlar bilan uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq.

Ushbu yondashuv qamrovni ma’muriy ro‘yxatdan o‘tish bilan bir qatorda amaldagi sug‘urta ishtiroki asosida ham baholash, Pensiya jamg‘armasining badal bazasini kengaytirish hamda fuqarolarning keksalik davridagi daromad ta’minotini mustahkamlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonun, 03.09.1993, 938-XII-son. https://lex.uz/docs/-112314.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. “O‘zbekiston Respublikasida pensiya tizimini isloh qilish bo‘yicha takliflar”. Taqdimot materiali, 2026, 8 b. (muallifga taqdim etilgan material).

3. Pensiya jamg‘armasi. “Bugungi hissa - ertangi ijtimoiy himoya”, 22.09.2026. https://gov.uz/oz/pj/news/view/223241.

4. International Labour Organization. World Social Protection Report 2024-26: Universal social protection for climate action and a just transition. Geneva: ILO, 2024. DOI: https://doi.org/10.54394/ZMDK5543.

5. International Labour Organization. World Social Protection Report 2024–26, Chapter 3: Coverage gaps for workers and the ‘missing middle’. 2024.

6. World Bank. Toward a Prosperous and Inclusive Future: The Second Systematic Country Diagnostic for Uzbekistan. Washington, DC: World Bank, 2022.

7. World Bank. Toward Better Insurance for Self-Employed Workers. Webinar and analytical resources, 17.01.2024. https://www.worldbank.org/en/events/2024/01/17/toward-better-insurance-for-self-employed-workers.

8. International Labour Organization. Uzbekistan unveils major actions to curb informal economy and strengthen social protection, 30.04.2025. https://www.ilo.org/resource/news/uzbekistan-unveils-major-actions-curb-informal-economy-

18 International Labour Organization. ILO Strategy on extending social protection to migrant workers, refugees and their families. Geneva: ILO, 2024.

and-strengthen.

9. International Labour Organization. ILO Strategy on extending social protection to migrant workers, refugees and their families. Geneva: ILO, 2024.

10. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. “Pensiya tayinlash uchun minimal ish stajini 15 yilga yetkazish taklif etilmoqda”, 23.09.2026. https://gov.uz/oz/imv/news/view/223960.

11. OECD. Participation in pension plans. Pensions at a Glance 2025. Paris: OECD Publishing, 2025.

12. Pensiya jamg‘armasi. “Pensiyaga chiqish shartlari”. https://gov.uz/oz/pj/sections/view/2062 (murojaat: 05.10.2026).

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**



+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100